

**MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASI 1960-1970-YILLARDA
(QORAQALPOG'ISTON ASSR MISOLIDA)****Pulatova Guli****Qoraqalpoq Davlat Universiteti tayanch doktoranti****Aminova Sevara****Xo'jayli tumani 20-sonli maktab tarix fani o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15543907>****Annotatsiya**

XX asrning ikkinchi yarmida hududdagi maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari, ularning soni, kamchilik va muammolari keltirilgan.

Аннотация: Во второй половине XX века представлены учреждения бытового обслуживания региона, их количество, недостатки и проблемы.

Abstract: In the second half of the 20th century, domestic service institutions in the region, their number, shortcomings and problems are presented.

Kalit so'zlar: maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari, maishiy xizmat artellari, atelye, ta'mirlash ustaxonalari, sartaroshxonalar, tikuvchilik sexi, Nukus maishiy xizmat kombinati

Ключевые слова: предприятия бытового обслуживания, артели бытового обслуживания, ателье, ремонтные мастерские, парикмахерские, швейный цех, Нукусский комбинат бытового обслуживания.

Key words: household service establishments, household service artels, atelier, repair shops, hairdressers, sewing shop, Nukus household service combine

Hozirgi zamon tarix fanida insonga, uning ehtiyojlariga, ijtimoiy-psixologik e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Xorijiy gumanitar fan yo'nalishlarida ham aholining kundalik hayotini – mehnat va turmush sharoitini, hayot tarzini, moddiy va ma'naviy madaniyat elementlarini tadqiq etuvchi ijtimoiy tarix sohasi kengayib bormoqda. Biz buni bugungi kunda kundalik hayot tarixi muammolari bo'yicha o'tkazilayotgan xalqaro konferensiya va kongresslarda bu masala muhokama predmetiga aylanayotganligida ham ko'rishimiz mumkin[1]. Darhaqiqat, jahon kundalik hayot tarixiga tarixshunoslikda alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, germaniyalik olimlar bu sohada ma'lum tajribaga ega bo'lib, ular bizning tadqiqotlarimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Oxirgi 20-yillarda Rossiya tarixchilari tomonidan ham bu borada tadqiqotlar yaratildi. Mazkur tadqiqotlar turli tarixiy bosqichlarda kundalik hayotning turli jihatlariga qaratilgan. Umuman, ijtimoiy-maishiy infrastruktura muassasalari rivojlanishi aholining turmush darajasiga va tarziga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi turmush darajasining tarkibiy qismi sifatida ikki xil vazifani bajaradi. Birinchidan, inson ehtiyojlarini qondirsa, ikkinchidan, inson rivojlanishiga sharoit yaratadi. Ammo, sovet hokimiyati yillarida ehtiyojlar shakllanishi, ularni amalga oshirish sharoitlari va mexanizmlari ijtimoiy-siyosiy sabablar tufayli yetarli darajada tadqiq etilmagan. Iste'molga "ishchi kuchi ishlab chiqarish" chorasi sifatida qaragan totalitar tuzum nafaqat insonning ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlariga mensimay qaradi, balki tarixda "inson o'lchovi"ga ham bepisandlik bilan munosabatda bo'ldi.

Tabiiyki, aholining turmushini yengillashtirish sovetcha tuzumning ayyorona tashkillashtirgan rejasining bir bo'lagi edi. Maishiy xizmat sohani aholi orasida keng talqin qilishdan asosiy maqsad shu ediki, ayollarning uy yumushlari uchun sarflaydigan vaqtlarini

qisqartirish va bu orqali ularning ko'proq vaqtini korxona va tashkilotlardagi yumushlarining sifatli va uzoq muddatli bajarilishini ta'minlashdan iborat edi mening nazarimda. Masalan, ayollar uyda ko'p vaqtini olishi mumkin bo'lgan kir yuvish yumushlari yangi tashkil etilgan Kir yuvish punktlarida bajarilsa yoki ovqatlanish punktlaridan ko'proq foydalanish evaziga ancha vaqtini o'zini rivojlantirish uchun sarflasa, bu hukumat uchun ishchi kuchining o'sishiga olib kelishini juda yaxshi bilgan. Bu xatti-harakatlar o'z samarasini ko'rsatgan holda 1960-yilda O'zbekistonda aholining o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish yalpi vaqt sarfi kamayib, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari xizmatidan foydalanish ko'paya boshladi. Aholi turmushini yaxshilash niqobi ostida ham albatta hukumat manfaatlari yotganini ko'rishimiz mumkin. Ammo nima bo'lganida ham bu tarmoqlarning kengaytirish harakatlari faqat hukumat uchun emas, balki aholi uchun ham manfaatli bo'lganini aytmagligimiz mumkin emas. Chunki endilikda aholi hayotida zamonaviylik, hayotga hamohanglik, rivojlanish kabi ijobiy jihatlar ko'zga ko'rinayotgan edi. Yangi tarmoqlarning (kir yuvish punktlari, texnika ta'mirlash va mebel ustaxonalari kabilar) vujudga kelishi yangi ish o'rinlarining ochilishini anglatar edi.

Bu davrda Qoraqalpog'iston hududida ham maishiy xizmat ko'rsatish faoliyati bir muncha rivojlanayotgan edi. 1960-yilda bu yerda 291 ta, 1965-yilga kelib esa 366 ta, 1971-yilda 668 ta maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tashkil etildi. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish hajmi 1965-yilda 2,0 mln.rubl va 1970-yilda 4,1 mln.rubl miqdorida bo'ldi [2, 282-b].

Biroq bu ko'rsatkichlar hududda maishiy xizmat ko'rsatish tizimining talab darajasidan ya'ni boshqa viloyatlar ko'rsatkichlaridan past ekanini ko'rsatar edi. Shuningdek maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari soni ham sezilarli darajada ortgan. 1964-yilda respublikaning kolxoz va sovxozlarida maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari soni 78 tani tashkil etgan bo'lsa, 1965-yilda 130 taga yetgan. Bu qatorda Xo'jayli, Kegeyli va Nukus shahridagi maishiy xizmat ko'rsatish kombinatlari o'z faoliyatini muvaffaqiyatli yurgizgan va belgilangan rejani ortig'i bilan bajargan. To'rtko'l tumani esa bu borada ancha oqsagan [3, 1-b].

O'zbekiston SSRning xalqqa maishiy xizmat ko'rsatish ko'lamini 1970-yilga 3,5 – 4 marta, qishloq joylarda 5,5 – 6,5 marta ortadi. Besh yil ichida 700 ga yaqin maishiy xizmat obyektlar quriladi va foydalanishga beriladi. Bu ko'rsatkichlar SSSR miqyosida shahar joylarda maishiy xizmat ko'rsatish 1966-1970-yillarda 2,5 marta, qishloq joylarda esa 3 marta ko'paytirish ko'zda tutilgan edi. Bizga ma'lumki, SSSRda mamlakatning rivojlanish strategiyasi, vazifalari besh yillik rejalar asosida amalga oshirilgan. Har bir beshyillikning yakunida bajarilgan ishlarning hisoboti ko'rib chiqilgan va beshyillikning boshida esa o'tkaziladigan partiya syezdida vazifalar belgilangan. Bu nafaqat markazda balki, markazga bo'ysungan respublikalarda ham shu tarzda amalga oshirilgan.

1972-yil mayda O'zbekiston SSR Markaziy komiteti "Fermer xo'jaligi tizimini tugatish va respublika kolxozlarida kapital qurilishni tubdan yaxshilash to'g'risida" qaror qabul qildilar. Ushbu qarorga ko'ra, kichik qishloqlarda davom etayotgan qurilish qishloq mehnatkashlariga xizmat ko'rsatish, maishiy va kommunal xizmat ko'rsatish uchun zarur shart sharoitlarni yaratishga, qishloqlarni elektr energiyasi, suv, gaz va issiqlik tizimi bilan markazlashtirilgan holda ta'minlashga imkon bermadi. Shu yilning sentabr oyida Amudaryo tumanining Yu.Oxunboboyev, Kommunizm, Leninizm, Krupskiy kolxozlarida bolalar bog'chalari, maktablar, hammomlar, turar joy binolari qurildi. Aholining farovonligini ta'minlash

dasturida (1966-1975), hududlarda turli maishiy xizmat uylari qurilishi, jumladan hammom, oshxona va magazinlar qurilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun bu yillar davomida ajratilgan kapital 199 mln.rublni tashkil etdi [4, 90-b].

Biroq shunga qaramay, 1973-yilda SSSR bo'yicha aholi jon boshiga maishiy xizmat ko'rsatish hajmi 22 rubl, O'zbekiston uchun 15 rubl bo'lgan bo'lsada, Qoraqalpog'istonda bu ko'rsatkich 11 rublni tashkil etgan. Ushbu statistik ma'lumotlarning barchasi shuni ko'rsatadiki, aholining talabi hali ham yetarli darajada qondirilmagan va aholi o'z vaqtlari va kuchlarining katta qismini samarasiz uy vazifalariga sarflashga majbur bo'lgan [4, 91-b].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, sobiq Sovet Ittifoqida har bir sohaning kengaytirilishi hamda rivojlanishi eng avvalo xalq manfaatidan oldin hukumat foydasiga muvofiqligi nazarda tutilgan holda amalga oshirigan. Shu sababli ham maishiy xizmat ko'rsatish sohasida doimiy kamchiliklar mavjud bo'lib kelavergan. Bu sohani aholi ehtiyojlari to'liq o'rganilgan holda amalga oshirilsa, tabiiyki natijalari ancha qoniqarli bo'lishi shubhasiz edi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Репина Л.П. Социальная история и историческая антропология: новейшие тенденции в современной британской и американской медиевистике //Одиссей. 1990. М.,1990. С. 167-181
2. Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет: Юбилейный статистический сборник. Ташкент. 1984. 282-b
3. Совет Каракалпакстани газетаси. 23.03.1966. №57.
4. Шамамбетова Г. "Социальная политика в Каракалпакстане (1950-1985 годы)" дисс. канд. ист. наук. Нукус. 2004.